

**NEMIS YOSHLARI LEKSIKASINING TARIXIY TARAQQIYOTI****Durdona Saidova Akrom qizi**

O'zMU, Xorijiy filologiya fakulteti

Nemis filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

e-mail: saidova-durdona@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nemis yoshlari leksikasining shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan bo'lib, yoshlik leksikasining tildagi o'rni, uning ijtimoiy-lingvistik mohiyati hamda kommunikativ, identifikatsion va kreativ funksiyalari yoritilgan. Shu bilan birga, yoshlar leksikasining globalizatsiya, raqamli madaniyat va internet muhitida tutgan o'rni ham ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar leksikasi, Jugendsprache, til o'zgarishi, Denglisch, globalizatsiya, sotsiollingvistika, nemis tili, yoshlar madaniyati.

**Аннотация** В данной статье анализируются формирование и исторические этапы развития немецкой молодёжной лексики. Рассматриваются место молодёжной лексики в языке, её социолингвистическая сущность, а также коммуникативные, идентификационные и креативные функции. Кроме того, научно исследуется роль молодёжной лексики в условиях глобализации, цифровой культуры и интернет-среды.

**Ключевые слова:** молодёжная лексика, Jugendsprache, языковые изменения, Denglisch, глобализация, социолингвистика, немецкий язык, молодёжная культура.

**Abstract** This article analyzes the formation and historical stages of the development of German youth vocabulary. It examines the role of youth vocabulary in the language, its sociolinguistic nature, and its communicative, identificational, and creative functions. In addition, the article scientifically explores the role of youth vocabulary within the context of globalization, digital culture, and the internet environment.

**Keywords:** youth vocabulary, Jugendsprache, language change, Denglisch, globalization, sociolinguistics, German language, youth culture.

Til — bu insoniyat madaniyatining eng muhim ko'rsatkichi bo'lib, u jamiyatdagi o'zgarishlarni, ijtimoiy qatlamlarning o'zaro munosabatini hamda madaniy taraqqiyot jarayonlarini aks ettiradi. Ayniqsa, yoshlik leksikasi (Jugendsprache) jamiyatning eng dinamik va ijodkor qismini tashkil etgan avlodning ruhini, qadriyatlarini hamda dunyoqarashini ifodalaydi.

Nemis yoshlari leksikasi tildagi o'zgarishlarning eng faol maydonidir. Unda leksik yangilanish, semantik kengayish, inglizcha unsurlar kirib kelishi, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri kabi hodisalar jamlangan. Shu bois bu soha nafaqat leksikologiya,

balki sotsiologiya, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nazariyasi uchun ham muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

“Jugendsprache” atamasi nemis tilida “yoshlar tili” degan ma’noni bildiradi. U ma’lum yosh guruhining muloqotdagi o’ziga xos uslubini ifodalaydi. Yoshlik leksikasi, odatda, 14–25 yosh oralig’idagi insonlarning kundalik nutqida qo’llaniladigan, emotsional bo’lgan, lekin shu bilan birga guruh birligini mustahkamlaydigan leksik tizimdir. Tilshunos Eva Neuland [1] yozganidek: “Jugendsprache ist Ausdruck jugendlicher Kreativität und sozialer Identität.” (“Yoshlar tili — bu yoshlarga xos ijodkorlik va ijtimoiy o’zlikning ifodasidir.”)

Yoshlar tili bir necha funksional vazifani bajaradi:

1. Identifikatsion funksiya – yoshlar o’z guruhiga mansubligini ko’rsatadi. Misol: „*Alter, was geht?*“ – yaqin do’stiga murojaat shakli sifatida, yaqinlikni bildiradi.

2. Emotiv funksiya – hissiyot va munosabatni ifodalaydi. „*Das ist mega geil!*“ – juda ajoyib, kuchli hissiy baho beradi.

3. Kreativ funksiya – yangi so’zlar yaratish orqali tilni yangilaydi: „*abchillen*“, „*rumhängen*“, „*weglachen*“ kabi fe’llar yoshlar tomonidan yaratilgan yangi leksik birliklardir.

4. Ijtimoiy differensial funksiya – kattalar tilidan ajralish, mustaqil avlod madaniyatini shakllantirish vositasi. Shunday qilib, yoshlar tili faqat til hodisasi emas, balki ijtimoiy-madaniy identifikatsiya vositasi hamdir.

Nemis yoshlari leksikasining tarixiy rivojlanish bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, ularni asosiy quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. 1950–1960-yillar: Iqtisodiy tiklanish davri va madaniy yangilanish. Urushdan keyingi Germaniya yoshlarida yangi madaniyatga intilish, o’zligini yangidan qurish jarayoni kechdi. Shu davrda Amerika madaniyati va musiqasi kuchli ta’sir ko’rsatdi. Inglizcha so’zlar yoshlar nutqiga faol kirib keldi: „*cool*“, „*okay*“, „*rocken*“, „*Teenager*“, „*Hitparade*“. Bu davrda til orqali “eski avlod”dan ajralish jarayoni kechgan. Sotsiolingvist Norbert Dittmar [2] bu holatni “*Sprachlicher Ausdruck der Generationskonflikte*”- Avlodlar o’rtasidagi ziddiyatning til shakli, deb ataydi.

2. 1970–1980-yillar: Submadaniyatlar va qarshilik tili. Bu yillarda Germaniyada *punk*, *hipi*, eko-harakatlar kabi submadaniyatlar shakllandi. Har bir guruh o’ziga xos leksik tizimni yaratdi: Panklar: „*Bulle*“ (*politsiyachi*), „*Assi*“ (*asotsial*), „*Spieß*“ (*konservativ inson*). Hipilar: „*Peace*“, „*Love*“, „*Trip*“. Bu leksika siyosiy tizimga qarshi norozilik, erkinlik va individualizm ruhini ifodaladi. Yoshlik tili bu davrda madaniy norozilik belgisi bo’ldi.

3. 1990-yillar: Globalizatsiya, texnologiya va yangi avlod. Germaniya birlashgach, yoshlar tili ham sharqiy va g’arbiy leksik elementlarning uyg’unlashuvi orqali boyidi. Internet va kompyuter madaniyati yangi so’zlarni keltirib chiqardi: „*chillen*“ (dam olish), „*zocken*“ (kompyuter o’ynash), „*abchecken*“ (ko’rib chiqmoq,

tekshirmoq), „downloaden“ (yuklab olmoq). Bu davrda ingliz tili ta'siri avvalgi davrlarga nisbatan kuchaydi. „Denglisch“ fenomeni (Deutsch + Englisch) nemis yoshlari leksikasining ajralmas qismiga aylandi.

4. 2000-yildan hozirgacha: Raqamli avlod va global leksika. XXI asrda yoshlar tili asosan ijtimoiy tarmoqlar, memlar va internet madaniyati orqali shakllanmoqda. Bugungi avlod so'zlashuv tili tez o'zgaradi, yangi so'zlar tez kiradi va tez chiqib ketadi. „lost“ – yo'qotilgan, tushunmaydigan (metaforik ma'noda); „cringe“ – noqulay, uyaltiruvchi holat; „sus“ – shubhali (inglizcha „suspicious“ so'zidan); „no front“ – haqorat niyatida emas; „digga“, „Bro“, „same“ – do'stona murojaatlar. Yoshlar o'zaro nutqida qisqartmalar va inglizcha elementlarni birlashtiradi: „Ey Bro, das war echt nice!“ yoki „Ich bin lost, lol!“. Tilshunos Jannis Androutsopoulos [3] bu hodisani „transnatsional yoshlar madaniyati“ deb ataydi, ya'ni global internet tilining mahalliy til bilan sintezlanishi.

Nemis yoshlari leksikasining tildagi o'rni nihoyatda katta. Yoshlar leksikasi tildagi yangilanish va ijodkorlikning asosiy manbaidir. Har yili yoshlar tomonidan yuzlab yangi so'zlar yaratiladi, ulardan ba'zilar keyinchalik adabiy tilga kiradi. Masalan, „cool“, „krass“, „geil“ so'zlari dastlab sleng bo'lgan, hozir esa umumxalq tilida ishlatilmoqda. Demak, yoshlar leksikasi — til evolyutsiyasining laboratoriyasi. Shuningdek yoshlar tili turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida yangi kommunikativ ko'prik yaratadi. U orqali yoshlar o'zlarini erkin ifodalaydi, shu bilan birga yangi madaniy qadriyatlarni targ'ib qiladi. Misol uchun, „no front“ yoki „same“ kabi iboralar bag'rikenglik va ijtimoiy yumshoqlikni ifodalaydi. Yoshlar tili orqali jamiyatdagi madaniy tendensiyalarni ham kuzatish mumkin. Har bir davrning slengi o'z zamonasining ijtimoiy kayfiyatini ifodalaydi: 1970-yillar – norozilik; 1990-yillar – texnologik yangilik; 2020-yillar – global tarmoq madaniyati. Shu sababli yoshlar leksikasi tilshunoslar, sotsiologlar va madaniyatshunoslar uchun muhim diagnostik vositadir.

Til o'qitishda yoshlar leksikasini o'rganish, o'qituvchilarga zamonaviy til hodisalarini tushunish imkonini beradi. Shuningdek, tarjima va sotsiopragmatika sohalarida ham yoshlar slengi tahlili muhim: u emotsional mazmun, ironiya va nutq uslubini to'g'ri tarjima qilishga yordam beradi.

Nemis yoshlari leksikasi — bu nafaqat yoshlarning so'zlashuv tili, balki tilning jonli va ijodkor qismidir. U doimo o'zgaruvchan, zamon bilan birga rivojlanadigan, madaniy va texnologik jarayonlarning mahsulidir. Yoshlar tili orqali til yangilanadi, yangi ma'nolar yaratiladi, avlodlar o'rtasidagi tafovut va aloqalar namoyon bo'ladi, global va milliy unsurlar sintezlanadi. Tilshunos Heike Wiesening so'zlari bilan aytganda: „*Sprache der Jugend ist keine Bedrohung für die Standardsprache, sondern ihre Zukunft.*“ („Yoshlar tili adabiy tilga xavf emas, balki uning kelajagidir“) [4]. Shunday ekan, yoshlar leksikasini o'rganish — til taraqqiyotini tushunishning eng

tabiiy yoʻlidir. U jamiyatning oʻzgarish surʼati, ijodkorlik darajasi va madaniy yoʻnalishini aks ettiradi. Bugungi kunda nemis yoshlari leksikasi global madaniyat bilan birlashgan holda xalqaro xususiyatga ega boʻlmoqda. Shu bois uni oʻrganish, tahlil qilish va oʻqitish nafaqat tilshunoslar, balki oʻqituvchilar, tarjimonlar va madaniyatshunoslar uchun ham dolzarb masaladir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Neuland, Eva Jugendsprache. Sprachliche Innovation und soziale Identität. Berlin: de Gruyter. 2018.
2. Dittmar, Norbert. Soziolinguistik. Eine Einführung. Tübingen: Narr.1997.
3. Androutsopoulos, Jannis. Jugendsprache, Medien und Identität. Frankfurt am Main: Peter Lang. 2005.
4. Wiese, Heike. Kiezdeutsch: Ein neuer Dialekt entsteht. München: C.H. Beck. 2020.
5. Kluge, Friedrich. Etymologisches Wörterbuch der deutschen Sprache. Berlin: de Gruyter. 2021.
6. Zimmermann, Klaus. Sprachwandel und Jugendkultur. Heidelberg: Winter Verlag.2000.